

BUXORO AMIRLIGINING HAYOT TARZI

Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna

Osiyo xalqaro universiteti "Tarix va filologiya" kafedrası.

Tarix fani o'qituvchisi

Salimova Parvinabonu Ravshan qizi

Tarix ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15286962>

Annotatsiya. Ushbu maqola XVIII asr o'rtalari va XX asrning boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy hayoti, ya'ni xalqning qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanganligi hamda ularning ahvoli va yashash turmush tarzini bayon qiladi. Bundan tashqari markazi qadimiy Buxoro shahri atrofida joylashgan amirlik savdo, madaniyat va islom ilmi uchun muhim markaz edi. Siyosiy tizim islom monarxiyasi va diniy boshqaruvning uyg'unligi bilan ajralib turadi, amir siyosiy va diniy hokimiyatga ega edi.

Kalit so'zlar: xo'jalik hayoti, yer egaligi, soliq turlari, hunarmandchilik va savdo turlari, Buxoroga tashrif buyurgan elchilar, Amir Abdulahad, temir yo'l, urf-odatlar.

Vaqt tarix harakatining eng muhim mulki sifatida kechani bugun bilan, bugunni ertangi kun bilan bog'lab, nafaqat aniq tarixiy voqealar, yaxlit tarixiy jarayon, balki u yoki bu davrda tarixiy jaryonning faol ishtirokchisi bo'lgan buyuk shaxslar haqida ham o'z qarorini qabul qiladi. XVIII asr da tashkil topgan Buxoro amirligi Markaziy Osiyodagi eng muhim siyosiy va madaniy tuzulmalardan biri edi. U Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy bekat bo'lgan qadimiy Buxoro shahri atrofida joylashgan bo'lib, XX asr boshlarida Sovetlar nazorati ostida parchalanib ketgunga qadar nufuzli davlat bo'lib qoldi.

Buxoroda 1756-1920-yillarda hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasi islom monarxiyasi bo'lib, amir ham siyosiy, ham diniy hokimiyatni amalga oshirgan. Amir mintaqada islom dinining manaviy himoyachisi hisoblanib, ichki ishlar, harbiy harakatlar va diniy ishlarda oliy hokimiyatga ega edi. Amirning qudrati sezilarli bo'lsa-da, uning boshqaruvi ko'pincha "ulamo" nomi bilan mashhur bo'lgan zodagon oilalar va diniy ulamolardan iborat katta kengash tomonidan shakllantirilar edi. Buxoroda siyosiy tuzum o'ta markazlashgan bo'lib, amir davlatning turli hududlarda boshqarishda sodiq harbiy sarkardalar va mansabdor shaxslar guruhiga tayanar edi.

Amirlikning harbiy qudrati uning otliq qo'shinlariga asoslangan bo'lib, ular ham ichki xafsizlik ham tashqi mudofaada muhim rol o'ynagan. Amir hokimiyatiga qaramay, mintaqaning

kuchli diniy elitasi kundalik hayotning ko'plab jabhalarini tartibga solib, islom qonunlari shariat boshqaruvida markaziy o'rini egallab turishini taminlaydi.

Buxoro nafaqat siyosiy markaz balki Sharq va G'arbni bog'lagan qadimgi Ipak yo'li savdo tarmog'ining asosiy markazi ham bo'lgan. Buxoro shahrining o'zi Xitoy, Fors, Hindiston va Rossiyadan oqib kelayotgan tovarlar uchun muhim bozorga aylanadi. Viloyat iqtisodi qishloq xo'jaligi, xususan, paxta, bug'doy, sholi va meva yetishtirishga asoslangan. Bu mahsulotlar qo'shni davlatlar bilan savdo qilinib, mintaqa savdogarlik to'qimachilik, gilam va boshqa nafis mahsulotlarni ham eksport qilgan. Buxoroning savdo tranzit nuqtasi sifatida roli uning iqtisodiy muvaffaqiyatida muhim rol o'ynadi. Buxoro orqali tovaralar oqimi uning asrlar davomida gullab yashnashiga, savto-sotiqdan to'plangan boylik esa amirlikda madaniy va me'morchilikni taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shaharda karvon saroylar-sayohatchilar uchun mehmonxonalar va katta bozorlar qurilib, uning iqtisodiy ahamiyatini aks ettirilgan. Bundan tashqari mintaqada fors, turk va arab ta'sirining tarqalishi Buxoroda, xususan, fan va falsafa, adabiyot sohalarida intellektual va madaniy muhitning gullab-yashnashiga olib keldi.

Buxoro amirligi islom madaniyati va ilm-fanning chirog'i edi. Buxoro shahrining o'zi islom olamidaeng mashhur intellektual markazlardan biriga aylanib, butun musulmon olamida olimlar, shoirlar va din arboblari o'ziga tortdi. Mintaqa ulamolari islom fiqhi, ilohiyot va tasavuf ilmlarining rivojlanishida katta rol o'ynagan. Mashhur faylasuf va tasavvuf olimi Bahouddin Naqshband kabi ko'zga ko'ringan namoyondalar shahar bilan bog'lanib, Buxoro Naqshbandiya so'fiylik tariqat markaziga aylandi. Buxoro shuningdek adabiyot, san'at va me'morchilikda o'z aksini topgan fors, turkiy va Markaziy Osiyo madaniy tasirlarining o'ziga xos yig'unligini ta'minlaydi.

Tarixshunoslik sohasidagi g'arbiy aniqrog'i Yevropa va Amerika mutahasislari O'rta Osiyo tarixiga shuningdek Buxoro amirligi tarixiga katta ahamiyat bildirgan, chunki biz bilamizki XIX asrda Buxoro amirligi turli sohalarda mintaqaning boshqa davlatlardan ustun edi. Amirlik ulkan ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy salohiyatga, harbiy qudratga ega edi. Buxoro amirligi esa xorijlik ingliz zabon yozuvchilar, tarixchilar, sayohatchilarda katta qiziqish uyg'otgani tabiiy. Tarixiy manbalarga ko'ra, Buxoro amirligi haqida ilk malumotlar Angliyaning Turkiston o'lkasi hududiga iqtisodiy kirib borishi boshlanishi xorijiy adabiyotlarda paydo bo'ladi.

Amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasman sotish, hamda hadiya etish taqiqlangan bo'lsada bunga doimo ham amal qilinmagan. Davlat yerlari bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirish hisobiga ko'paytirib turilgan. Undan tashqari davlat yerlari hukumdor oldida katta gunoh qilgan yirik yer egalaridan musodara qilingan. Amirlikda mavjud bo'lgan yana bir yer egalik

shakli mulk- xususiy yerlar bo'lib bu yer egaligi shakli qo'zg'almas mulk hisoblangan hamda hech qanday cheklovlarsiz meros bo'lib qoldirish mumkin bo'lgan. Mulki xur egasi doimo amaldagi hukumdor tomonidan berilgan yorliqqa ega bo'lishi shart bo'lgan va aynan shu yorliq tufayli u yer solig'idan ozod qilingan. Amirlikda dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan mulki xiroj atamasi ishlatilgan. Bunday yerlar ega bo'lgan yer egalari o'z yerlarini erkin sotish, meros qoldirish va hadya etish huuqiga ega bo'lganlar. Bunday yerlardan rasman hosilning uchdan biri miqdorida soliq belgilangan bo'lsa-da, amirlikning har biri hududida o'rnatilgan va belgilangan tartib hamda urf-odatlariga ko'ra, soliq miqdori hosilning uchdan to beshdan birigacha bo'lgan. An'anaga ko'ra vaqf yerlari asosan diniy muassasalar-majidlar, mozorlar, xonaqoh, madrasalarga yer maydonlarini meros qoldirish hamda xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo'lib u yer egaligini alohida shaklini tashki etgan ushbu yerlardan tushgan foyda mutavvali ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavali asosan vaqf egalari avlodlaridn tayinlngan bo'lib, u vaqf hujjtlarig asoslanib foydani taqsimlab chiqqan. Amirlikda vaqf yerlarini sotish, bunday yerlardan soliq olish taqiqlangan bo'lsa-da, manbalar va hujjatlariga bunga amal qilinmaganligini ko'rsatadi.

Amir Nasrullo davridan boshlab yer egaligining tanho shakli tarqalgan. Nasrullo o'ziga bo'ysinmagan amaldorlar va urug' oqsoqollarning yerlarini musodara qilib bunday yerlarni vaqtincha egalik qilish huquqi bilan o'z tarafdorlariga hadiya qilgan. Amir Muzaffar davridan boshlab tanho tog'li hududlarga ham tarqaladi. Mirzo Badi Devonning "Majma ul-arqom" asardagi malumotlarga ko'ra amirlik quyidagi ma'muriy-hududiy bo'laklarga: 100ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer tumanga, 50 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer xazorga, 25ming tanob sug'oriladigan yer nimxazoraga, 10-15ming tanob sug'oriladigan yer obxo'rga, 400tanob sug'oriladigan yer qariyaga, 300 tanob sug'oriladigan yer marzaga bo'lingan. Bunday tartibda bo'linish bo'yicha xiroj, zakot va boshqa turdagi soliqlarni yig'ish va qulay bo'lgan.

Buxoro amirligida eng asosiy soliq bu yerdan olinadigan xiroj solig'i edi. Bu soliq amlokdor va oqsoqollar ishtirokida hosil pishib yetilgan paytda hosilga qarab belgilangan. Xajmi esa hosilning 3 dan,4dan ayrim hollarda 1/5 qismi ko'rinishida bo'lgan. dorug'alar uchun kafsani dorug'a ham to'laganlar. Qonuniy yer solig'idan tashqari yer egalari har bir tanob bog' yoki tomorqadan maxsus tanob puli va yem-xashak yetishtiradigan yerlardan alaf puli olingan. Ular umumiy nomda tanobona deb ham yuritilgan. Amirlikdagi yana bir soliqlardan biri-zakot edi. Zakot davlatning mol mulkidan olinadigan solig'i bo'lib mol-mulk narxining 40/1 hajmida undirilgan. Bu soliqning eng daromadli tomoni mahsulotlarga soliq solish shuningdek savdogarlarning mahsulot uchun olib kelingan pullariga soliq solish bo'lgan. Zakot mahsulotlaridan bir necha marta undirib olingan. Urushlar davrida favqulotda soliq-jul undirilgan. Undan tashqari savdo-sotiqdan dalloli, daryodan mahsulotni

qayiqdan olib o'tganligi uchun suv puli, bozordagi savdo joyi uchun puli taxtajoy kabi soliqlar olingan. Ommaviy jamoat ishlariga ishtirok etmaganlardan shariatga ko'ra, boqipuli deb ataluvchi jarima olingan. Soliqlar, to'lovlar va jarimalar pul va mahsulot ko'rinishida, mahalliy soliq yig'uvchilar hamda amir tayinlangan kishilar tomonidan yig'ib olingan.

XIX asrning 1-yarmida Buxoro amirligiga V.Murkroft tashrif buyurgan. Uning sayohati xorijlik, anglo-amerikalik mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun Buxoro amirligi hududini ochishda asosiy o'rin tutadi. Turli hududlarga tashrif buyurgan sayohatchilar Buxoro amirligi va Markaziy Osiyoning boshqa xonliklarga tobe bo'lgan turli xalqlarning davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi muayyan farqlarni kuzatish imkomiga ega bo'ladilar.

Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoda, jumladan, Buxoro amirligi hududlarida olib borgan harbiy harakatlaridan nafaqat siyosiy va harbiy strategik maqsadlarni, balki iqtisodiy maqsadlarni ham ko'zlagan edi. U Buxoro amirligi bilan tuzmoqchi bo'lgan shartnomaning dastlabki loyihalarida, so'ngra 1868-yil may oyida 2 tomonlama imzolangan tinchlik va 1873-yilda imzolangan do'stlik shartnomasida Buxoraga iqtisodiy talablarini beji ilgari surgan emasdi, uni o'z nazoratiga olish, kerak bo'lsa, o'z manfaatlaridan kelib, to'liq rivojlanishga erishish edi. Eng muhimi, Buxoro iqtisodiyoti Yaqin Sharqdagi Angliya-Rossiya raqobatini bartaraf etish, harbiy strategik sohada yangi yutuqlarni taminlash maqsadida Rossiya harbiy kuchlari uchun o'ziga xos tramplin va o'ziga xos xom-ashyo bazasi bo'lib xizmat qiladigan hududga aylanishi ko'zda tutilgan edi .

Amir Abdulahat davrida Buxoro amirligi davrida rivojlanish cho'qqisiga erishdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu amir boshqa mang'it amirlaridan o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan ajralib turardi va u xaramidagi ayollardan kamroq foydalanar edi, sipirtli ichimliklar ichmasdi va ovqatda soddalikni saqlardi. 1988-yilda Rossiya Mudofaa vazirligi tomonidan Abdulahadxonga Buxoro amirlogiga qarashli Chorjo'ydan Buxoroni aylanib o'tib, Olot, Qorako'l, Yakkatut, Kogon, Qiziltepa orqali sevimli qarorgohi Karmana va undan keyin Samarqandga olib boruvchi temir yo'l qurish uchun ruxsat berilgan. Temir yo'l orqali harakatlanish va Amudaryo bo'ylab paraxod qatnovining yo'lga qo'yilishi natijasida yuk va yo'lovchi tashish tezlashadi. Abdulahad xon davrida savdo-sotiq keng rivojlangan. XIX-asrning 70-80-yillarida Buxorodan Rossiyaga jo'natiladigan.

Masalan: 1880-1881- yillarda 4000 pud qorako'l mo'ynasi, 6,1 pud sitrus urug'i, 4000 pud qog'oz ipi ekport qilingan.

1890-yilda Rosiyadan Buxoro amirligiga guruch, bug'doy, bug'doy uni, qand, choy, kerasin, bo'yoq, arpa, chinni idishlar va boshqa tovarlar assortimenti, 1891-yilda jami 2480 pudni tashkil etdi. Buxoro amirligidan Rossiyaga eksport qilinadigan asosiy sanoat xomashyosi paxta, jun va ipak

edi. Quritilgan mevalar, qovun va tarvuzlar ekport qilingan. 1891-1893-yillarda Buxoro amirligidan Rosiya imperiyasiga va boshqa mamlakatlarga 14 million so'mlik mahsulot eksport qilinib, 15 million so'mlik tovar keltirilgan.

Amir Abdulahadxon davrida Kogondan Qarshi orqali Termizgacha temiryo'l tarmog'ini qurishni rejalashtiradi. U o'z mablag'i hisobidan Kogondan Buxorogacha uzunligi 12 km bo'lgan temiryo'l qurishga qaror qiladi. Amir ko'magida Amudaryo orqali qit'adagi eng yirik temiryo'l ko'prigi qurilishi o'sha davrda rejalashtirilgan edi. 1898-yil 17- oktabrdan 1901-yil 17-maygacha uzunligi 750 metr bo'lgan temiryo'l ko'prigi qurilishi yakunlanadi. Temiryo'l ko'prigi qurilishini 3million 468ming rubl miqdorda moliyalashtirish amirlik tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa-da , ko'prik poydevorida "Bu ko'prik oliy hazratlari Nikolay II tomonidan Amir Abdulahadxon ishtirokida qurilgan " deb qayt etilgan .1888-yil 28-avgustdagi xabariga ko'ra 1894 -yilda Karmana vokzal maydonida temir yo'l yonidagi "Poznansky va kompaniya " aksiyadorlik jamiyatining paxta tozalash zavodi qurilgan.

Xulosa: Bu maqola orqali shuni bayon qilish mumkinki, Buxoro amirligi turli xil jabhalarni boshidan kechirdi. Buxoro amirligining hayot tarzi o'ziga xos diniy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan bo'lib, asrlar davomida shakllangan an'ana va urf-odatlarini o'z ichiga olgan. Aholining kundalik turmushi, hunarmandchiligi, savdo-sotiq faoliyati hamda diniy-ma'rifiy hayoti bu amirlikning boy tarixiy merosini tashkil etadi. Bugungi kunda bu hayot tarzi O'zbek xalqining madaniy xotirasida muhim o'rin egallaydi va tarixiy o'tmishimizni anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The Bukhara Emirate: a historical overview/2024.12 december.
2. "Buxoro amirligining siyosiy tuzumi va davlat boshqaruvi" / D.Rasulova. Malakaviy ishi.
3. From the historical of economic and cultural life of Bukhara emirate during the rule of Amir Abdulahadxon/ Novateur publications/5 may 2021.
4. Economic life and development of Bukhara emirate/Western Euron jurnal of historical events and social science/9,september.2024.
5. Toshpo'latova, S. (2025). BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINING UMUMIY KONTSEPTSIYASI VA AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(3), 481-484.

6. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
7. Toshpo'latova, S., & Tursunova, S. (2025). TURKISTONDAGI–BIRINCHI DRAMMA. *Modern Science and Research*, 4(3), 468-480.
8. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
9. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
10. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA–QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
11. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARINING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
12. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
13. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
14. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
15. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
16. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
17. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
18. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
19. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 432-437.

20. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV–O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1214-1222.
21. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. *Modern Science and Research*, 3(2), 87-93.
22. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004-1011.
23. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
24. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
25. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
26. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
27. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
28. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
29. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
30. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIC CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
31. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 84-89.
32. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(1), 12-16.
33. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. *Scholar*, 1(28), 395-401.

34. Toshpo'latova, S., & Hoshimova, M. (2025). BERUNIY VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 344-351.
35. Toshpo'latova, S. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 643-651.
36. Muyiddinov, B., Toshpo'latova, S., & Gadayeva, M. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *Modern Science and Research*, 4(2), 97-105.
37. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Muyiddinov, B. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODEL. *Modern Science and Research*, 4(2), 106-116.
38. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Muyiddinov, B. (2025). TARIX DARSLARINI OQITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 87-96.
39. Toshpo'latova, S. (2025). O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODELINING MAZMUNI VA AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 581-590.
40. Toshpo'latova, S. (2025). BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI. *Modern Science and Research*, 4(3), 235-245.
41. Muxamedovna, G. M. (2024). Millatimiz Faxri-Buxoro Ma'rifatparvari. *Miasto Przyszłości*, 52, 557-562.
42. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
43. Muxamedovna, G. M. (2024). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 97-102.
44. Mukhamedovna, G. M. (2024). The Sad Fate Of The Women Of Turkistan: About The "Hujum" Movement And Its Impacts On Agriculture. *SPAST Reports*, 1(7).
45. Muxamedovna, G. M. (2023). MAKTABLARDA TARIX FANINI O'QITISH AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 178-180.
46. Muxamedovna, G. M. (2023). TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Научный Фокус*, 1(5), 175-177.

47. Gadayeva, M., & Ismoilova, Z. (2024). The Importance Of Studying The Science Of Youth Psychology In Improving People'S Lives. *Modern Science and Research*, 3(2), 676-683.
48. Gadayeva, M., & Hamroqulova, N. (2024). The Basis Of The Use Of Development-Pedagogical Skills In Pedagogical Activity. *Modern Science and Research*, 3(2), 684-689.
49. Gadayeva, M. (2024). ABOUT THE HISTORY OF THE VEIL OR MEDIEVAL WOMEN'S DRESS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1097-1103.
50. Gadayeva, M. (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464.
51. Universiteti, G. M. M. O. X. (2023). Uchinchi Renesans Davrida Ajdodlarimiz Merosini Organish Orqali Integratsion Ta'limni Yanada Takomillashtirish Tamoyillari: Часть 1 Том 1 Июль 2023 Год. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 1(1), 11-16.
52. Gadayeva, M. (2024). Attack Action. *Modern Science and Research*, 3(1), 1028-1033.
53. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
54. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
55. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
56. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
57. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*
58. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
59. Yuldosheva, F. (2024). MIRZO ULUG'BEK KUTUBXONASI VA BUGUNGI TAQDIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 741–749. Retrieved from
60. Yuldosheva, F. . (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(11), 788–791. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48058>

61. Yuldosheva F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING “QADIMGI TURKLAR” ASARIDA KO’KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338–342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/article/view/3908>
62. Yuldosheva , F. . (2025). MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – MILLATNING O‘Z TAQDIRINI ANGLASHIDA YORQIN YULDUZ VA MILLIY UYG‘ONISH DAVRINING RAMZI. *Modern Science and Research*, 4(1), 420–427. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60832>
63. Yuldosheva, F. & Abdihamidova , F. . (2025). BEHBUDIYNI KIM O‘LDIRGAN?. *Modern Science and Research*, 4(1), 359–366. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63681>
64. Ярашова, М. . (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
65. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
66. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta’limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta’lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
67. Yarashova, M. (2024). ILK O‘RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG‘LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
68. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
69. Yarashova, M., Sa’dullayev, U., & Yo’ldosheva, F. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN’ANAVIY BOSH KIYIMLARI- DO‘PPI VA RO‘MOL. *Modern Science and Research*, 4(1), 600–607. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64116>
70. Yarashova M. & Sultonova, M. (2025). BUXORO VOHASI DAFN MAROSIMI KIYIMLARI VA ULAR BILAN BOG‘LIQ IRIM-SIRIMLAR. *Modern Science and Research*, 4(1), 352–358. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63674>